FA Fizika-texnika instituti hamda «MISiS»ning Olmaliq filiali o’rtasida memorandum imzolandi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fizika-Quyosh” ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi Fizika-texnika instituti hamda Rossiyaning Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti “MISiS”ning Olmaliq shahridagi filiali o’rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Memorandumga asosan tomonlar Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida energiya samaradorlikni oshirish, chiqindi gaz issiqligidan samarali foydalanish, yarimo’tkazgichli datchiklar ishlab chiqish, hamkorlikda kadrlar tayyorlash hamda bir qator boshqa yo’nalishlarda keng qamrovli loyihalar ustida hamkorlikda ish olib borishadi.

МИСиС